

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

XALQ TA`LIMI TIZIMIDA O`QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO`NALTIRISH ISHLARI: MUAMMO VA ULARNING YECHIMLARI

Buxoro viloyati Qorovulbozor tuman 3-umumiy o`rta ta`lim maktab

amaliyotchi psixologi

Xemrayev Jo‘ra Tashiyevich

Annotatsiya: mazkur maqolada o`quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirish ishlari: muammo va ularning yechimlari haqida fikr-muloxazalar keltirib o`tilgan.

Kalit so`zlar: kasb tanlash, kasbni sevish, kasbga jalb etish, kasb tanlash muammolari, ijobiy yechim, Ota-onalik, pedagogic-psixologik tavsiyalar, maktab bitiruvchisi.

Hozirgi kunda ta`lim muassasalarida psixologik bilimlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Buni kichik maktab yoshidagi bolalardan tortib, yuqori sinf o`quvchilarning darslarga qatnashishi, bo`sh vaqtlarini mazmunli o`tkazishi, ayniqsa, bitiruvchi sinf o`quvchilarning kasb-hunarga yo`naltirishda psixologik xizmatga ehtiyoj sezilishida ko`rish mumkin. Insonning shaxs sifatida shakllanishi uning bolalaik yillaridan tortib kamol yetgunga qadar ijtimoiylashuv jarayoni bilan bog`lik hodisa sanaladi. Shu boisdan, bolaning psixologik holatini to`g`ri anglash dolzarb vazifadir. Ayniqsa, bolani kasbga yo`naltirishda kichik bir detallarga ham alohida ahamiyat qaratish foydadan xoli bo`lmaydi.

Bolani kasbga yo`naltirish, eng avvalo kasbning mazmun-mohiyatini tushuntirishdan boshlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarga “Kelajakda kim bo`lasan?”, “Qaysi kasbni egallamoqchisan?” kabi savollar bilan murojaat qilganda, ularning aksariyati kasb-hunararlarni emas, aksincha lavozimlarni nazarda tutadi va shungga qarab javob beradi. Qayta qayta so`rov o`tkazilganda, ularning istaklari o`zgarib borishiga guvohi bo`lamiz. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, maktab yoshidagi bola mavjud kasblarni tanlashni xoxlaydi. Bu qiziqishning bora-bora o`zgarishi uning atrofidagi muhitga bog`liq holda kechadi. Mehnat predmeti,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

maqsadi, ish qurollari va sharoit kasb turini o`zgartirishga yoki tanlashga sabab bo`ladi.

Inson kasb bilan shug`ullanayotganda diqqati shu ishlayotgan mehnat predmetiga yo`naltirilgan bo`ladi. Predmet vositasida biron harakatning amalga oshirilishi mehnatning maqsadini namoyon qiladi. Bu jarayonda mehnat qurollaridan foydalanadi hamda uni qanday sharoitda bajarishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlarga ko`ra, insonlar kasb tanlashni uch omilga yondashib amalga oshiradi. Birinchi toifadagi kishilar “qila olaman” tamoyiliga tayanadi, ya`ni kasbiy layoqati asosiy vazifani bajaradi.

Ikinchi toifadagilar esa “zarur” tamoyili yo`l ko`rsatadi. Ularda sharoit to`kis, kasb sohibi bo`lishga intilish kuchli bo`ladi.

Uchinchi toifa kishilar esa “istayman” tamoyili asosida o`z qiziqishlariga tayanib, kasb tanlashadi. Ulardan farqli o`laroq, dastlabki ikki toifada kishilar asosan atrof-muhitga bog`lik holda kasb sohibiga aylanishadi.

Bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishdagi eng asosiy davr –bu boshlang`ich sinf davridir. Shu bois, o`qituvchilarning bu borada ota-onalar bilan hamkorlik o`rnatishi bolaning kelgusida kasb tanlashi hamda ijtimoiylashuviga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Shuningdek ta`lim muassasasi psixologning o`quv jarayonida jamoadagi psixologik muhitni nazorat qilib borishi ta`lim samaradorligini oshiruvchi omil hisoblanadi. Bunda psixogimnastik mashg`ulotlar olib borish boshlang`ich sinf o`quvchisining jamoada o`zini namoyon etishi, o`ziga ishonch orttirishi va natijada kelajakda yetuk shaxs bo`lib ulg`ayishiga zamin yaratadi.

Mustaqil tadqiqotchi U.Jumayevning fikriga ko`ra, bugungi kunga kelib, o`quvchilarni kasb tanlashga yo`naltirish muammosi o`ziga xos ijtimoiy-psixologik tamoyillar asosida yondashish tendensiyasi ko`zga tashlanmoqda. Jumladan, olimlar tomonidan “kasbga yo`naltirish uchburchagi” tavsiya etilgan va uning birinchi tomoni–turli kasblarning insonga qo`yadigan talablarini puxta bilishidir. Ikkinci tomoni ijtimoiy kutilmaning mehnat bozorini, jamiyatning u yoki bu

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

mutaxasisiga nisbatan ehtiyojini o`rganishdir Kasbga yo`naltirishning uchinchi tomoni va bunga oid bacha ishlarning asosi shaxs xususiyatlarini, eng avvalo, kasbga yo`naltirilayotgan insonning qobiliyati va istagini oilaviy mihit sharoitida aniqlashni o`z ichiga olishi tadqiq qilgan.

Maktabdagagi 7-11 sinf o`quvchilari bilan Kelajakda kim bo`lmoqchisiz? hamda hayotdagi maqsadingiz nima mazmunidagi o`tkazilgan so`rovnomada jami 186 nafar respondent ya`ni o`quvchi ishtirok etdi. So`rovnomada ishtirok etgan o`quvchilarning 47 nafari (25,5%) pedagog, 36 nafari (19%) ped.psixologiya, 18 nafari (10%) injener texnolog, 36 nafari 20% shifokor, 34 nafari 17% fermer rahbari, 9 nafari (5%) savdo xodimi, 8 nafari (4%) harbiy kasbni egallashini bildirib o`tishdi. Kasb tanlashda yakuniy qarorga kelishingizda kim yordamlashdi savoliga 126 nafar (67%) o`quvchilar ota-onasi sinf rahbarlari maktab psixologi bilan maslaxatlashganini bildirib o`tgan bo`lsa 62 nafar (33%) shaxsan o`zları shu qarorga kelishganini bildirib o`tishgan.

Bugungi dunyo manzarasida ko`pgina rivojlangan davlatlar o`rtasida jaxon bozorini egallash, jaxon mexnat bozorida mavjud o`rnini mustahkamlash kabi jarayonlar kuzatilmoqda. Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko`ra 2023-2024 o`quv yilda Respublikamiz maktablariga 700 ming bola 1-sinfga qabul qilindi jami maktablarda ta`lim olayotgan o`quvchilar soni 6.6 mln. (Dunyodagi ayrim davlatlarni aholisidan ham ko`p) nafarni tashkil etmoqda. Har yili mehnat bozorida 500-600 ming Oliy ta`lim, texnikumlarni bitirayotgan yoshlar o`z o`rinlarini egallashmoqda. Kuzatuv natijalariga ko`ra aksariyat yoshlar ichki va tashqi mehnat bozorlarida o`z orinlarini topishda va moslashib ketishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda.

Kasb-hunar inson hayotining ajralmas qismidir shungga muvofiq har bir o`quvchi yosh, shaxs to`g`ri kasb tanlashida amaliyotchi psixolog, sinf rahbarlari, va ota onasi uning imkoniyatlarini to`g`i baholagan holda uni maqsadli kasb-hunarga yo`naltirishi lozim.

Albatta har bir o`quvchi jamiyatdagi obro`li kasblarni egallashga xarakat qiladi lekin bunda o`z imkoniyatlarini to`g`ri baholab yondoshishi talab etiladi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Bugungi kunda Respublikamizdagi 10 minglab maktablarda aynan shu yo`nalishga daxldor ma`sullar faoliyat olib borishmoqada ular o`quvchilarni qiziqishlarini hudud sharoitidan kelib chiqqan holda profnavigator.uz saytlari orqali yil davomida bir nech marta so`rovnomalar olib uni tahlil etib o`quvchilarni qiziqishlari haqida rahbariyat va ota-onalarni xabardor qilib borishadi. O`quv yili davomida ta`lim muassasalarida kasblar oyliklari o`tkazilib maktab o`quvchilariga jamiyatimizdagi hamda hududdagi kasblar to`g`risida yetarlicha ma`lumotlar hamda biror kasbda namunali mehnat qilgan jamiyatda munosib o`rin egallagan o`z kasbining fidoyisi bo`lgan shaxslar bilan davra suxbatlari ushrashuvlar belgilangan rejaga muvofiq yil davomida o`tkazib kelinmoqda . Bundan tashqari tuman markazida, qishloq hududida namunali ishlab chiqarishni yo`lga qo`ygan har yili iqtisodiy o`sish bilan yakunlayotgan ma`suliyati cheklangan jamiyatlari korxonalarga o`quvchilarning sayoxatlari ta`minlanmoqda. Eng yaxshi maktab qaysi degan savolga bitiruvchilari jamiyatda munosib o`rnini topa olgan, barcha o`quvchilari ishli, ma`lim bir ish turi bilan band bo`lgan bitiruvchilar bor maktab tushuniladi.

Bizni hududimiz qishloq posyolkasi bo`lganligi sababli sanoat korxonalari mavjud emas lekin shunday bo`lsada kasb-hunar rivojlangan jumladan: Issiqxonachilik, asalarichilik, temirchilik, avtopayvandlovchi, bog`dorchilik yo`nalishida Sayfullo Fayzulloev, Anvar Egamberdiyevlar hafta davomida dars mashg`ulotlari tugagandan so`ng shu kasbga qiziquvchilar uchun shu kasbni sir asrorlarini muntazam o`rgatib kelishmoqda.

Kuzatishlar natijalariga ko`ra: bugungi maktab o`quvchilari bugungi jamiyat bugungi mehnat bozorlari bundan 15-20 yil oldingi tizimlardan keskin farq qiladi. Bugungi mehnat bozorida kasb hunar malakasi nuqtai nazardan yetralicha tajribaga ega bo`lmasa u mehnat bozorida o`z o`rnini topa olmay daromadi past kasb-hunarga o`tib qolishi mumkin. Mamlakatimizda ushbu yo`nlaishlarda keng qo`lamli tizimli ishlar olib borilmoqda jumladan: barcha ta`lim muassasalarida 7-sinfdan boshlab o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish, ularni haftada bir kun davomida o`zlari yo`qtirgan hunar bilan shug`ullanishlari uchun sharoitlar yaratib berilganligi fikrimiz dalilidir.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Muammo:

- Maktab o`quvchi yoshlari tez-tez kasb tanlash borasidagi fikrlarini o`zgartirishi;
- Zamonaviy kasb hunarlar va shu kasbdan topilayotgan daromadlar haqida bilimga ma`lumotga ega emasligi;
- Pozitiv va kreativ fikrlashni yo`qligi, o`ziga ishonch tuyg`usini pastligi mustqail fikrni kamligi;
- Oilada o`z o`rnini topa olmaganligi, faqat buyruqlarni bajaruvchi bo`lib qolganligi;
- Sinfda avtoritar muhit bo`lganligi;
- O`z kelajagi haqida o`zi orzu niyat va xarakat qilmasligi;
- Maqsadiga erishishda dastlabki kichkina to`sqidan o`ta olmay fikrini maqsadini tezda o`zgartirishi;
- Oilada bolalarni fikri eshitilmasligi ularga so`zni berilmasligi natijasida ularda shu masalada xoxish istakni yo`qolishi;

Yechimlari

- maktab psixologgi, sinf rahbari, ota-onalik keng hamkorlikda faoliyat yuritib o`quvchilarda maqsadga intilish, yetakchilik va ishbilarmonlik, intelektual xarakter va mexnatsevarlik, qattiqqo`llik va tavakkalchilik, bilim olish yo`lidagi qiyinchiliklarni faqat va faqat o`z kuchi bilan yengishga o`rgatish;
- Zamonaviy kasb hunarlar va shu kasbdan topilayotgan daromadlar haqida videorolik namoyishini o`tkazish;
- Pozitiv va kreativ fikrlash, o`ziga ishonch tuyg`usini shakllantirishda trening mashg`ulotlarida urg`u berish;
- oilada va sinfda bolani tinglashga o`rganish, mustaqil fikrga egaligi uni kelajakdagi orzusi haqida tasavvurga ega bo`lish, negativ fikrlashini oldini olish;
- o`quvchida o`ziga ishonch tuyg`usini shakllantirish, o`z oldiga qo`yan maqsadidan hech qachon voz kechmaslik tuyg`usini mustahkamlash hamda motivatsiya berish.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.G'oziev. Ontogenet psixologiyasi. "Noshir", -T.: -2010.
2. E.G'oziev. Psixologiya. -T.: 2010. 76-bet.
3. Abduraxmonov F.R., Abdurahomonova Z.E. Kasb psixologiyasi. -T.: 2018. 143-b.
4. Sharipov Sh.S., Davlatov K.N., Salohuddinova G. Kasbga yo'naltirishning ilmiypedagogik asoslari. -T.: 2007. 97-b.
- 5.. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. -T.: 2011. 10-b